Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun chet ellarda ham, O'zbekistonda ham ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tibori qaratilib kelinmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassislari: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan sohalari mutaxassislari o'rganmoqdalar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Chunki oilalarning buzilishi tufayli nafaqat shu ajralishgan er-xotin va ularning farzandlari, balki jamiyat ham ko'p zarar ko'radi. Ajralishlar ko'plab noxush hodisalar: noto'liq oilalar sonining ortishi, bolalar va o'smirlar o'rtasida qonunbuzarlikning ko'payishi, nazoratsiz qolgan bolalar sonining ortishi, yolg'izlik, sobiq er-xotinlar va qarindoshlarning o'zaro munosabatlarining yomonlashuvi kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ajrim erkaklar uchun nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va ruhiy salomatlik nuqtayi nazaridan ham murakkab oqibatlarga olib keluvchi ko'p qatlamli psixologik jarayon hisoblanadi. Bunday holatning asosida, bir tomondan, ijtimoiy me'yorlar va madaniy qadriyatlar, ikkinchi tomondan, erkak ruhiyatiga xos xususiyatlar yotadi. Ajrimdan keyin erkaklar ko'pincha chuqur depressiya va yolg'izlik hislarini boshdan kechiradilar. Oilaviy hayot davomida erkaklar aksar hollarda asosiy ijtimoiy tayanch sifatida rafiqasi va farzandlariga tayanadilar. Shu bois ajrimdan so'ng erkaklarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'i keskin torayib, ular aynan yordamga eng muhtoj davrda o'zini yolg'iz sezishi mumkin. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ayollar odatda turmush davomida do'stlar va qarindoshlar bilan kengroq aloqa tarmog'ini saqlab qoladi, erkaklar esa ko'proq turmush o'rtog'i va oilasiga suyanan holda yashaydi. Natijada ajrashgach, erkaklar kuchli yakkalanish va izolyatsiya holatiga tushadi. Bu esa o'z navbatida ruhiy tushkunlikni chuqurlashtiradi va turli psixologik buzilishlar xavfini oshiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik taniqli psixolog Ronald F. Levant tomonidan ishlab chiqilgan “Normativ erkaklik modeli” nazariyasi erkak psixologiyasini tushuntirishda muhim metodologik asoslardan biri sifatida qaratiladi. Levant bu model orqali erkaklarga bolalikdan boshlab yuklatiladigan ijtimoiy va madaniy fikrlar ularning ruhiy salomatligi va his-tuyg'ularini ifodalash uslubiga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur tahlil qiladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, jamiyat erkaklardan kuchli, sabrli, muammolarni yolg'iz hal qiluvchi, va ayniqsa, hissiyotlarini ko'rsatmaslik kabi xususiyatlarni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida, ularning psixologik dunyosi va emotsional tajribasini chuqur repressiyaga uchratadi. Levant o'z tadqiqotlarida bu hodisani “alexithymia”, ya'ni his-tuyg'ularni aniqlash va ifodalashdagi qiyinchilik bilan bog'laydi.^[1] Unga ko'ra, erkaklar hayotning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, ayniqsa ajrimdan keyingi davrda, ruhiy og'riq va iztiroblarini ochiq ifoda eta olmaslik muammosiga duch keladilar. Bu esa ruhiy siqilish, stress va hattoki depressiyaning yashirin shakllariga olib kelishi mumkin. Levant bu jarayonni “sukut madaniyati” yoki “emotsional cheklov sindromi” deb ataydi.

Boshqa mutaxassislarning fikricha ham, erkaklarda ajrimdan keyingi psixologik holat an'anaviy ijtimoiy rollar ta'sirida og'irlashadi. Masalan, Mahalik va Rochlen tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, erkaklar o'zini kuchli tutish va muammolarni yolg'iz hal qilishga intilgan sari, ular psixologik yordam olish imkoniyatidan ham voz kechadilar. Bu esa psixologik muammolar chuqurlashuviga xizmat qiladi.^[2] Shuningdek, zamonaviy psixo-



logik yondashuvlar erkaklarda ajrimdan keyingi depressiyaning tashxislash va davolashda genderga oid rollarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ajrimdan keyingi erkak psixologiyasi ko'plab ijtimoiy, madaniy va ruhiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Uning oldini olish va oqibatlarini yumshatishda nafaqat psixologik maslahatlar, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari - mahalla, diniy muassasalar va psixologik markazlarning hamkorligi zarur. Ajrim jarayoni erkaklar uchun shaxsiy yo'qotish hissinin ham keltirib chiqaradi. Oilasidan ayrilgan erkak faqat turmush o'rtog'ini emas, balki farzandlari bilan birga yashash imkonini va kundalik turmush tartibini ham yo'qotadi. Bu holat ko'pincha yaqinini yo'qotgandagi qayg'u kabi kechib, erkak tomonidan kuchli motam sifatida qabul qilinishi mumkin. Ajralish natijasida bolalardan ayrilish ayniqsa og'ir kechadi - tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, farzandlaridan uzoqlashib qolgan otalar ko'pincha ularni sog'inish va bo'shliq bilan yashaydilar. Bu holat erkaklarda aybdorlik hissinin kuchaytirib o'zini oilani saqlab qololmagandek his etish tuyg'ularini paydo qiladi. Aynan ajrimdan so'ng farzandlarini ko'rish imkonining cheklanishi ko'p erkaklar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ba'zi hollarda bu omil erkaklar o'rtasidagi asosiy sabablaridan biri sifatida ham qayd etilgan. Shu bois ajrashgan erkaklarda spirtli ichimlik yoki giyohvandlikka ruju qo'yish, o'z joniga qasd qilish xavfi ortishi kabi salbiy oqibatlar tez-tez uchraydi. Ajrimning dastlabki bir-ikki yilida erkaklarning ruhiy holati ayniqsa chuqur depressiya holatida bo'ladi. Psixologik izlanishlarda ajrashgan erkaklar orasida depressiya, o'zini tanqidiy past baholash (o'ziga ishonchning pasayishi) va yangi munosabatlarga kirishda qiyinchiliklar uylangan tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekani aniqlangan.

Turkiyaning Ibn Haldun universitetining psixologik maslahat bo'limi professorlari Sefa Bulut va Havva Dagtas "Ajralishdan keyin erkaklar psixologiyasi va qiyinchiliklari" maqolasidagi qarashlariga ko'ra, ajrashgan erkak va ayollar ikkalasida ham depressiya darajasi ortadi, ayniqsa erkaklar orasida depressiv holatlar, yolg'izlik hissi va xavotirlar ajrimdan keyingi ilk yillarda juda keng tarqalgan. Bunday ruhiy holatning chuqurlashuvi ba'zan jismoniy salomatlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi - masalan, ajrashgan erkaklar orasida yurak xastaligi, qon bosimining doimiy yuqori bo'lishi kabi kasalliklar ko'rsatkichlari oshishi kuzatilgan. Umuman, ajrim erkak uchun kuchli ruhiy zarba bo'lib, uning oqibatlari nafaqat psixologik, balki jismoniy salomatlikda ham namoyon bo'lishi ehtimoli mavjud.^[3]

Sharq jamiyatlarida, xususan Markaziy Osiyo an'analari, erkakka yuklatilgan ijtimoiy rol - oila boquvchisi, himoyachisi va boshligi bo'lish - nihoyatda muhim hisoblanadi. An'anaviy erkaklik roli shu qadar mustahkamlangan⁰ki, erkakning hayotdagi muvaffaqiyati ko'pincha uning oila qurib, uni mustahkam saqlay olishi bilan o'lchanadi. Shu bois nikohning buzilishi - ajrim holati ko'plab jamiyatlarda erkakning ushbu kutilgan rolini bajara olmaganini, muayyan ma'noda "muvaffaqiyatsizligi" sifatida qaraladi. Jamiyatdagi bunday bosim erkakning o'z-o'zini anglashi va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlarga ko'ra, erkaklar va ayollar ajrimning sabab va mazmunini bir xil tushunsa-da, uning oqibatlarini boshdan kechirishda gender farqlari mavjud. Erkaklar uchun ajrim oqibatlari asosan ruhiy-emotsional va shaxsiy jihatdan kuchliroq namoyon bo'lsa, ayollar uchun ko'proq ijtimoiy va madaniy oqibatlar ahamiyatlidir. Boshqacha qilib aytganda, erkaklar ajrimni ichki psixologik muammo sifatida kechirishsa, ayollar ko'proq tashqi - jamiyat va madaniyat darajasidagi muammolarga duch keladilar. Masalan, Sharq jamiyatlarida ajrashgan ayol ko'pincha atrofdagilar tomonidan ochiq yoki yashirin tanqidlarga uchrashi, obro'siga putur yetishi mumkin. O'zbek va turk madaniyatida ajrashgan ayolga nisbatan "beva" yoki "ajrim ko'rgan" degan tamg'a qo'yilishi odatiy; erkak esa ajrashgan taqdirda bunday nomlashdan xoli bo'ladi. Bu esa jamiyatda erkaklar uchun ajrim mavzusidagi bosimning tashqi ko'rinishi ayollarnikiga qaraganda nisbatan yengilroq ekanini anglatadi. Darhaqiqat, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ajrimdan keyin erkaklar ijtimoiy maqomi jiddiy ravishda pasaymasligi, ular qisqa fursatda qayta uylanib yangi hayot boshlash imkoniga ega bo'lish ehtimoli yuqoriroq. Hatto statistik ma'lumotlarda ajrashgan erkaklar ayollarga nisbatan tezroq qayta oila qurishga moyilligi, daromadi yuqori erkaklarning qayta nikoh qurish ehtimoli ko'proq ekani qayd etilgan. Bu hol jamiyatning erkaklarga ajrimdan so'ng ham "yangi sahifa" ochishga ruxsat berishi, ayollarga esa ko'proq tanbeh berishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holatda psixolog olimlar va mutaxassislar turlicha yondashadi.

Shuningdek, psixolog R. Abduqodirov o'zining "Oilaviy psixologiya: asosiy nazariya va amaliyot" asarida ta'kidlaganidek, Sharq mentalitetida erkak oila boshlig'i sifatida qabul qilinadi va uning oilaviy muvaffaqiyati jamiyatda ijtimoiy mavqe belgilovchi mezon hisoblanadi.^[4] Ajrim esa erkakning ijtimoiy obro'siga salbiy ta'sir qilib, uni atrofdagilarning ayblashiga yoki tanqidiga duchor etadi. Bu bosim natijasida erkaklarda stress, psixologik siqilish, hatto depressiv sindromlar rivojlanadi. Erkaklik burchi to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlar erkakning yordam so'rashiga ham to'sqinlik qilishi mumkin. "Erkak kishi mustahkam bo'lishi, muammolarni o'zi yengishi kerak" degan qarashlar tufayli ko'plab erkaklar ruhiy iztirobda bo'lsa-da, bu haqda ochiq gapirmaslikka va mutaxassisga murojaat qilmaslikka moyil bo'ladi. Shu tariqa, jamiyatning erkakdan kutgan "bardoshlilik" roli buzilganda ya'ni erkak ajrim tufayli zaiflikka duch kelganda - u na jamiyatdan, na yaqinlaridan ochiq qo'llab-



quvvatlash topa olishi, o'z ichki iztirobini yolg'iz o'zi o'tkazishi mumkin. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, ruhiy kasalliklarning chuqurlashuvi va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

O'zbekistonlik psixolog olimi G. Yo'ldosheva o'zining "Psixologik muammolarni oilaviy yondashuv asosida hal qilish" nomli ilmiy ishida ajrimdan keyingi psixologik muammolarni faqat individual yondashuv bilan emas, balki kompleks - oilaviy va ijtimoiy asosda hal etish muhimligini ta'kidlaydi.^[5] Yo'ldoshevaning fikriga ko'ra, ajrim natijasida erkaklarda yuzaga keladigan ruhiy siqilish, depressiv holatlar va o'zlikni anglash inqirozlari ko'pincha faqat shaxsiy terapevtik yondashuv bilan to'liq bartaraf etilmaydi. Shuning uchun psixologik yordamni sobiq turmush o'rtog'i, farzandlari va keng ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalar kontekstida olib borish zarur. Yo'ldosheva nazariyasida bu jarayon "oilaviy rekonstruksiya yondashuvi" sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bu yondashuv asosida erkakning sobiq oila a'zolari bilan emotsional va kommunikativ jihatdan sog'lom muloqotni qayta tiklash, farzandlar bilan psixologik bog'liqlikni yo'qotmaslik va ijtimoiy tayanch guruhlarini shakllantirish orqali ruhiy salomatlikni mustahkamlash mumkinligi qayd etiladi.

Bu fikrni qo'llab-quvvatlovchi boshqa psixologlar ham mavjud. Jumladan, amerikalik psixolog Murray Boven tomonidan ishlab chiqilgan "Boven oilaviy tizimi" nazariyasiga ko'ra, shaxsning ruhiy holatini aniqlash va yaxshilash uchun uni mustaqil individ sifatida emas, balki o'z oilaviy tizimining ajralmas bo'lagi sifatida tahlil qilish samaraliroq bo'ladi.^[6] Ushbu nazariya ajrimdan keyingi psixologik muammolarni sobiq oila bilan bog'liq emotsional bog'liqliklarni qayta ko'rib chiqish orqali hal etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy davrda jahon miqyosida erkaklar ruhiy salomatligi masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Biroq, hanuzgacha erkaklar ruhiy salomatligi atrofidagi turli xil qarashlar kuchli saqlanib qolgan. Ko'plab jamiyatlarda erkaklar o'z muammolarini oshkor qilmaslikka, ruhiy tushkunlikni "ichga yutib", yordamga murojaat etmaslikka moyildirlar. Bunda yuqorida keltirib o'tilgan an'anaviy gender roli xususiyatlari – ya'ni erkakni bardoshli va yig'lamaslik kerak degan tasavvurlar – muhim rol o'ynaydi. Natijada erkaklar orasida ruhiy kasalliklar ko'p uchrasada, ularning ko'pi rasmiy diagnostika qilinmasdan va davolanmasdan qolib ketadi. Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida erkaklarning psixologik yordamga munosabati masalasida qo'shimcha omillar ham bor. Madaniy qarashlar va an'anaviy tushunchalar tufayli bu mintaqalarda nafaqat erkaklar, balki umumiy aholining psixologga yoki psixiatrga murojaat qilish odati uncha rivojlanmagan. Masalan, O'zbekistonda ruhiy sog'liq bilan bog'liq muammolarni oshkor qilishdan uyalish keng tarqalgan bo'lib, bunday holatga tushgan inson ko'pincha tibbiy yordamga emas, balki an'anaviy tabiblarga murojaat qiladi. Uyalish hissi shu darajada kuchliki, hatto rasmiy davolanish imkoniyati bor joyda ham ko'pchilik "jinnixonaga tushib qolish" yoki "tamg'alanish"dan cho'chib, muammoni yashirishga urinadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ruhiy salomatlikka e'tibor oshgani, 2018-yilda prezident farmoni bilan maxsus dastur qabul qilinib, 2019-yilda mamlakatda ruhiy sog'liqni saqlash bo'yicha yangi qonun loyihasi muhokamasi o'tkazilgani ma'lum. Bu o'zgarishlar tizim darajasida islohotlarning boshlanishidan dalolat beradi. Ammo shu bilan birga, jamiyatda ruhiy salomatlik borasidagi savodsizlik va noto'g'ri tushunchalarni bartaraf etish oson kechayotgani yo'q. Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, ruhiy kasalliklarga nisbatan noto'g'ri qarashlar va uyalish hissi O'zbekistonda hanuz keng tarqalgan bo'lib, bu yordam so'rash ko'rsatkichlarini pasaytiruvchi muhim omil bo'lmoqda.^[7] Erkaklar uchun esa bu boradagi vaziyat yanada qiyinroq bo'lishi mumkin. Chunki Sharq jamiyatlarida erkak kishi uchun yordam so'rash – xususan, psixologik zaifligini tan olish – "erkaklikka xos emas" harakat sifatida qaralishi mumkin. Ayrim hollarda erkakning do'stlari yoki oilasi unga ruhiy tushkunlikdan shikoyat qilishini yaxshi qabul qilmasligi, "o'zini qo'lga ol, tinchlan" kabi maslahatlar berishi mumkin. Bu esa aslida jiddiy depressiya holatidagi erkakni yanada yopiq qobiq ichida qolishga majbur qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviylik va urbanizatsiya ta'sirida ijobiy siljishlar ham yo'q emas. Yangi avlod orasida ruhiy salomatlik mavzusi sekin-asta ochiqroq muhokama qilinmoqda, ijtimoiy tarmoqlarda erkaklarning ruhiy sog'lig'i muammolari yoritila boshlandi. O'zbekistonda ayrim nodavlat tashkilotlar va tashabbuslar erkaklarni psixologik sog'lomlikka chorlovchi, masalan, stressni boshqarish yoki oilaviy munozaralarni hal qilish bo'yicha treninglar tashkil qilmoqda. 2020–2023-yillar oralig'ida pandemiya sharoiti ham ruhiy salomatlikka e'tiborni kuchaytirdi - erkaklar o'rtasida onlayn psixologik maslahat olish xizmatlariga murojaatlar oshgani kuzatildi. Ammo shunga qaramay, umumiy manzara shuki, Sharq mintaqalarida erkaklarning ko'pchiligi hanuz psixologik yordam so'rashga jur'at etmasdan, muammolarni mustaqil yengishga yoki ularni inkor etishga moyil bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda Sharqiy va Markaziy Osiyo mintaqalarida ajrimlar dinamikasi va uning oqibatlari bo'yicha ko'plab ma'lumotlar to'plandi. Xususan, O'zbekiston misolida oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Rasmiy statistikaga ko'ra, O'zbekistonda 2021-yilda taxminan 39,3 mingta ajrim qayd etilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 48,7 mingtagacha o'sgan va 2023-yilda 49,2 mingta ajrim holati ro'y bergan. Demak,



2021-yildan 2022-yilga o'tishda ajrashishlar soni qariyb 12 foizga oshgan, bu esa juda keskin o'sishdir. 2023-yilda ajralishlar o'sish sur'ati sekinlashib, atigi 0,8% lik ozroq ko'payish kuzatildi. Shu tariqa, 2020-2023 yillar oralig'ida O'zbekistonda oilaviy ajrimlar soni mutlaq miqdorda sezilarli oshib, yiliga 45-50 ming atrofida barqarorlashdi.^[8] Shu bilan birga, O'zbekiston aholining soniga nisbatan ajrimlar ulushi bo'yicha hali ham mintaqadagi eng past ko'rsatkichga ega davlatlardan biri bo'lib qolmoqda. 2022-yilgi ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda har 1000 nafar aholiga 1,4 ta ajrim to'g'ri kelgan Taqqoslash uchun, MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) davlatlari orasida bu eng past ko'rsatkich bo'lib, boshqa ayrim mamlakatlarda (masalan, Qozog'iston, Rossiya kabi) shu davrda 1000 aholiga 3-4 tagacha ajrim to'g'ri keladi degan taxminlar mavjud. Darhaqiqat, MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, nikohlar soni bo'yicha O'zbekiston mintaqada birinchi o'rinda tursa, ajralishlar soni bo'yicha eng oxirgi o'rinda turadi. Bu holat, bir tomondan, O'zbekistonda ajrimlar nisbiy ravishda boshqa davlatlarga qaraganda kamroq ekanini ko'rsatsa-da, yuqoridagi o'sish sur'atlari bu masalada muayyan ijtimoiy muammo shakllanayotganini ham anglatadi.

Sharqiy Osiyo davlatlarida ham ajrimlar soni va uning oqibatlari bo'yicha diqqatga sazovor statistikalar mavjud. Yaponiya misolida, 2020-yilda mamlakatda 210 mingga yaqin ajrim ro'y bergan. An'anaviy qadriyatlar kuchli bo'lgan bu jamiyatda ham ajrimlar soni sezilarli darajada yuqori. Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ajrimning ruhiy salomatlikka ta'siri juda jiddiy: 2021-yilda Yaponiya Adliya vazirligi tomonidan ajrashgan ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasida, ajrashgan shaxslarning qariyb 45 foizi ajrimdan so'ng darhol og'ir ruhiy tanglik (stress) holatida bo'lgani aniqlangan. So'rov ishtirokchilarining deyarli yarmi ajrimdan keyin depressiya va boshqa ruhiy buzilishlarning klinik alomatlariga ega bo'lgan. Taqqoslash uchun, Yaponiyada umumiy aholi orasida bunday yuqori stress ko'rsatkichi atigi 4,6% odamlarda uchraydi. Demak, ajrimdan keyingi davr insonlarning ruhiy holatini keskin yomonlashtirib, odatdagidan o'n baravar ko'proq stressga solishi mumkin. Bu topilma Sharqiy Osiyoda ham ajrimning psixologik salomatlik uchun dolzarb xavf omili ekanini tasdiqlaydi.^[9] Pandemiya (2020-2021) davri ajrimlar va ruhiy salomatlik munosabatini yanada keskinlashtirdi. Ba'zi Osiyo mamlakatlarida karantin cheklovleri sabab oilaviy nizolar kuchayib, ajrimlar soni oshgani kuzatildi. Masalan, Xitoyda 2020-yil boshida COVID-19 virusi tarqalganidan so'ng ajrashish uchun murojaatlar keskin ko'payib ketgani mahalliy axborot vositalarida yoritilgan. Bu holat majburiy uyda birga bo'lishning stressi va iqtisodiy qiyinchiliklar ortishi bilan izohlandi. O'z navbatida, ajrim sonining oshishi ijtimoiy-ruhiy muammolarni ham kengaytirdi. Ekspertlar ajrashgan erkaklar orasida pandemiya davrida depressiya va o'zini yolg'iz his etish hollari ko'payganini ta'kidlashgan. Afsuski, bu boradagi aniq raqamlar hali yetarlicha tadqiq etilmagan bo'lsa-da, umumiy tendensiya shuki, 2020-2025 yillar dunyo miqyosida ham, Sharq mintaqalarida ham oilaviy hayotga katta sinov bo'ldi va uning salbiy oqibatlari orasida erkaklarning ruhiy salomatligi masalasi alohida o'rin tutdi.

Sharqiy mintaqalarda ajrimdan keyingi erkaklarning psixologik holati individual ruhiy inqiroz bilan cheklanmay, balki keng ijtimoiy va madaniy muhit bilan uzviy bog'langan. Psixologik salomatlikni tiklash uchun ijtimoiy stigma bilan kurashish, psixologik yordam markazlarini rivojlantirish, shaxsiy va oilaviy maslahatlar tizimini yo'lga qo'yish zarur. Aynan mana shu yondashuvlar erkaklarni ruhiy tiklanish va jamiyatga integratsiyalashuv jarayonida samarali qo'llab-quvvatlashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ajrimdan keyingi erkaklarning psixologik holati jamiyatdagi an'anaviy gender stereotiplari va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Erkaklar o'z muammolarini oshkor etishda, psixologik yordam so'rashda gender rollari ta'sirida o'zini cheklashga moyildir. Bu esa ularning ruhiy siqilish, depressiya va hatto jismoniy kasalliklarga chalinish xavfini keskin oshiradi. Psixologik salomatlikni tiklash uchun G. Yo'ldosheva ilgari surgan oilaviy rekonstruksiya yondashuvi, Boven oilaviy tizimi nazariyasi va zamonaviy psixoterapevtik yondashuvlar muhim yechim sifatida tavsiya qilinadi. Jamiyatda ruhiy salomatlikka doir savodxonlikni oshirish, psixologik muammolarni stigmalashtirishdan voz kechish, erkaklarga mos keladigan psixologik maslahat usullarini joriy etish muhim ehtiyoj sifatida ko'rsatildi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, ruhiy salomatlik masalalari bo'yicha qonunlar va dasturlar yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham erkaklar orasida psixologik yordam so'rash ko'rsatkichi past. Bu holatni bartaraf etish uchun jamiyatda psixologik madaniyatni oshirish, ayniqsa mahalla va diniy muassasalar orqali erkaklarni ruhiy tiklanish jarayoniga jalb etish lozim. Shuningdek, pandemiya davri tajribasi shuni anglatdiki, onlayn psixologik maslahat xizmati kabi zamonaviy texnologiyalar erkaklar uchun psixologik yordamni yanada qulay va ochiq qiladi.

Sharqiy va Markaziy Osiyo jamiyatlarida erkaklar uchun ajrim psixologiyasini o'rganish va amaliy yechimlarni taklif qilish nafaqat individual ruhiy salomatlik, balki butun jamiyat barqarorligi uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu borada kompleks, institutsional va gender sezgir yondashuvlarni joriy etish eng maqbul strategiya sifatida belgilandi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Levant, R. F. (1995). Toward the reconstruction of masculinity. *Journal of Family Psychology*. <https://psycnet.apa.org/record/1995-97524-008>
2. Mahalik, J. R., Rochlen, A. B. (2006). Men's Likelihood to Seek Help: Gender Role Conflict, Self-Stigma, and Previous Counseling Experience. *Counseling Psychologist*, 34(2), 193–214.
3. S. Bulut, H. Dagtas,. The Psychology and Challenges of Men after Divorce. 2022. <https://academicstrive.com/OAJBSP/OAJBSP180064.pdf#:~:text=Both%20genders%20face%20some%20problems,to%20suffer%20from%20economic%20problems>
4. Abduqodirov, R. "Oilaviy psixologiya: asosiy nazariya va amaliyot." Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2018. b-77
5. Yo'ldosheva, G. (2020). Psixologik muammolarni oilaviy yondashuv asosida hal qilish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. b-33
6. Bowen, M. (1978). *Family Therapy in Clinical Practice*. New York: Jason Aronson. <https://murraybowenarchives.org/books/family-therapy-in-clinical-practice/>
7. A. Aliev, T. Taylor. (2020). Recommendations for Mental Health Reforms in Uzbekistan: A Policy Report. <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9295855/#:~:text=match%20at%20L341%20Stigma%20associated,Muslim%20spiritual%20and%20Russian%20biological>
8. O'zbekistonda ajrashishlar ko'rsatkichi MDH bo'yicha eng pastligi ma'lum qilindi /// <https://kun.uz/news/2024/02/25/ozbekistonda-ajrimlar-korsatkichi-mdh-boyicha-eng-pastligi-malum-qildi#:~:text=yilgacha%20bir%20oila%20bo%E2%80%98lib%20yashaganlar,tashkil%20etmoqda>
9. Reiko Otaki. (2024) Mental health of divorcees through divorce by mutual consent in Japan /// <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11284768/#:~:text=This%20analysis%20revealed%20that%20the,population%20in%20Japan%20reported%20a>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.